

IJTIMOY HAYOTDA SAN'ATNING O'RNI

Baymurzayeva Oyqaram Shodiyevna

Jizzax Davlat pedagogika instituti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"

kafedrasi katta o'qituvchisi, Jizzax. O'zbekiston.

e-mail: baymurzayeva77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada san'atning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligi, inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi va uning turli ko'rinishlari voq'elikni, hodisalarni, holatlarni, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishi uning badiiy, ijodiy faoliyatini rivojlanishida namoyon bo'lishi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, badiiy ijod, san'at, dunyoni ma'naviy anglash, qadriyat.

Роль искусства в общественной жизни

Аннотация: В данной статье показано, что искусство является одной из форм общественного сознания, являющейся частью духовной культуры человека, и что оно влияет на различные реалии, события, ситуации и поведение человека в развитии его творческой деятельности.

Ключевые слова: Культура, художественное творчество, искусство, духовное понимание мира, сущность.

The role of art in public life

Abstract: This article shows that art is one of the forms of social consciousness, the constituent of human spiritual culture and its varied manifestations of reality, events, situations, and the impact of human behavior on the development of its creative activity.

Keywords: Culture, artistic creation, art, spiritual understanding of the world, value.

San'at-ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'atning turli ko'rinishlari boqiylikni, undagi hodisa, narsa va xolatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (masalan, musiqada-tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi uyg'unligi orqali, badiiy adabiyotda-so'z, obrazlar orqali). Ular o'rtasida ma'lum umumiylik mavjud. San'atda go'zallik kategoryasi muhim ahamiyat kasb etadi. [2,74].

San'at keng ma'noli tushunchadir. Zero, san'at inson mehnati, aql-idroki bilan yaratilgan, vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San'at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib, har bir san'at asarida shaxsning o'ziga hos iste'dodi namoyon bo'ladi. Va nihoyat, san'at insonning mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. San'at, keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. O'zbekiston hududida, Ispaniya, Sahroi Kabir va boshqa

bir qator qadimiy o'lkalarda uchraydigan qoyalarga o'yib tushirilgan hayvonlarning tasvirlari hozirgi davr nuqtai nazaridan ham nafosatli qiymatga ega.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoevning 2018-yil 28-noyabr PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantrish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida 2019-2020-yillar davomida O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish va amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritalari ishlab chiqildi [1]. Bunga ko'ra Respublikamizda san'atni rivojlantirish borasida turli xil ko'rgazmalar, festivallar, chet davlatlarda ko'rgazmalar o'tkazish, o'zbek va chet tillarida adabiyotlar nashr etish, to'plamlar, ilmiy maqolalar chop etish, ta'lim sohasida san'atga oid mualliflarning asarlari ko'rgazmalarini tashkil etish, tanlovlar o'tkazish, san'at xodimlari bilan davra suxbatlari, muloqotlar o'tkazish belgilab berildi.

San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rango - rang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chiqarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil bir sohasi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlari vazifalariga ko'ra u alohida jamiyat birligini ifodalaydi. San'at jamiyatning barcha tomonlariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini rag'batlantiradi. San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositachi xalqalar mavjud. Har qanday badiiy hodisa -muayyan asar, uslubiy yo'nalish bo'lsin, ular vujudga kelishi va rivojlanishida diniy, axloqiy amallarning ta'sir kuchi darajasi bilan belgilanadilar, baholanadilar, o'lchanadilar.

San'at taraqqiyotining nisbiy mustaqilligi shu bilan izohlanadiki, jamiyat badiiy ravnaqining darajasi hamma vaqt ham uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaydi. San'atning taraqqiyoti yoki tanazzuli, uning u yoki bu turi, ko'rinishining yorqin ifoda topishi aniq ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, muayyan guruhiy kuchlar nisbatiga, mafkuraviy hayot xususiyatlariga, jamiyatda shaxs egallab turgan maqomiga, albatta, bog'liqdir. Masalan, qadimgi dunyo san'atining ravnaqi bir qator shart - sharoitlar va omillarning bir - biriga mos kelishi va o'ta qulay vaziyatning vujudga kelishi orqasida qaror topdi. San'atning jamiyat hayotida nisbiy mustaqil amal qilishi vorisiylik qonuniyatining namoyon bo'lishi bilan ham bog'liq. Vorisiylik faqat san'atga xos bo'lgan hodisa emas. U ijtimoiy ongning hamma shakllariga taalluqlidir. Vorisiylik jamiyat moddiy asosi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy va huquqiy ong sohalarida ko'proq namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ongning boshqa shakllarida bo'lganidek, san'atda ham bilish va mafkura bir - biri bilan chirmashib, o'zaro bog'lanib ketgan. Turli tarixiy bosqichlarda va san'atning turli ko'rinishlarida bilish va mafkura o'zaro mutanosiblikda amal qiladi. San'atning bilish jarayonidagi burch -vazifasi badiiy adabiyot vositasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Musiqaning bilish - anglash imkoniyatlari badiiy adabiyotga nisbatan biroz cheklanganligi ma'lum, lekin voq'elikni alohida noziklik, sezgirlik, samimiylik ruhida in'ikos etishda musiqaning ahamiyati katta, u odamlarning ruhiy holatini, ichki dunyosini, kechinmalarini, his tuyg'ularini betakror nozik ohang - kuylarda ifodalaydi. Huddi shunga o'hshash burch - vazifani me'morchilik ham bajaradi. Odamlar ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq san'at turi bo'lgan me'morchilikda davr xususiyatlari va belgilari, odamlar maishiy hayoti, did - farosatlari, umid - orzulari aks etadi.

San'at o'z mavzui doirasida bo'lsa ham fan singari beqiyos bilish - anglash imkoniyatlariga ega. Lekin san'atning badiiy bilish - anglash jarayoni o'ziga xususiyatlar doirasida sodir bo'ladi. San'at voq'elikni badiiy vositalar orqali yanada to'laqonli, jozibali anglashga yordam beradi.

San'at turlari obrazlarining vaqt va makonda rivojlanishiga qarab quyidagicha ifodaniladi;

1. Makon san'atiga-me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, grafika kiradi.

2. Vaqt san'atiga-musiq, badiiy adabiyot kiradi.

3. Vaqt-makon (qorishiq, aralash) san'atiga - kino, teatr, qolgan barcha san'at turlari kiradi[2,77].

Insonni atroflicha o'rganish jaryonida tabiiy va ijtimoiy fan tarmoqlari ham mushohada etiladi; masalan, tabiiy fanlar insonni biologik mavjudot sifatida o'rganib in'ikos etsa, ijtimoiy fanlar insonni shaxs sifatida tahlil qiladi. Ammo, ijtimoiy fanlar ham inson shaxsiga o'z vazifalari nuqtai nazaridan yondashadilar:

-ruhshunoslik insonning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini o'rganadi:

-iqtisod nazariyasi insonga muhim ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaraydi:

-siyosatshunoslik insonning siyosiy munosabatlar jarayonidagi o'rni masalasi bilan shug'ullanadi:

- axloqshunoslik insonni xulq - atvori qoidalari bilan birga tadqiq etadi:

- estetika - insonning voq'elikka estetik munosabatini ochib beradi.

Fan va texnika inson hayotida qanday ulkan ahamiyat kasb etishidan qat'iy nazar, san'atda ustivor ahamiyatli maqomga ega bo'lishi mumkin emas. San'atda fan odamlar uchun yaratiladigan insoniy faoliyat timsoli bo'lib xizmat qiladi. Mabodo ilmiy - texnik, ekologik, boshqaruv muammolari, his - tuyg'ulari, ma'nodan mahrum etilsa, u erda san'at bo'lmaydi. San'at hissiyotlar,

tuyg'ular bilan tirik, u hissiy ta'sir etish, ibrat ko'rsatish, tarbiya berish qudratiga egadir.

Masalan, san'atning manzara tasviri yoki natyurmort turida inson qiyofasi ifodalanmaydi. Bu hol inson mazkur san'at asarlarida aks etmaydi, degan emas. Manzara tasviri inson his - tuyg'ularining eng nozik va eng jozibali qirralarini namoyon etadi. Masalan, manzara janrida samarali ijod qilgan va san'at ixlosmandlariga manzur bo'lgan rassomlardan I. Levitan, O'. Tansiqboev, I. SHishkin, I. K. Ayvazovskiy, N. Karaxan kabilarni tilga olishimiz mumkin [3.16]. Bunday rassomlarning manzarali tasvir asarlari orqali insonda yorqin mayuslik, beozor shodlik, tashvishli ehtiros, ko'tarinki ruh, hayotbahsh orzu - umidlar, ijodkorlik va yaratish his - tuyg'ulari uyg'onadi (ilova) Tasviriy san'atning natyurmort turi ko'proq jonsiz narsalar - mevalar, gullar, taomlar, ichimliklar tasviridan iborat bo'lib, ularda odam aksini ko'rmasada, bu hil asarlar mavzui baribir inson, uning hayoti haqida ekanligini anglaymiz. Golland musavviri Villem Hedaning «Zavtrak s chernichnom pirogom» (ilova) natyurmortida o'ta mahorat bilan chizilgan qadah, g'ijimlangan dasturxon, unga to'kilgan may tasvirlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, nafaqat shisha sathini, dasturxon sifat ko'rinishini, ehtiyotsizlikdan to'kilgan mayni, balki inson iliq nafasini, uning qo'llari mazkur manzaraga taalluqli ekanini ochiq - oydin his etamiz. Nihoyat, bizni hozirgina sodir bo'lgan inson dramasini sezish orqali vujudga kelgan qandaydir tashvishli bir hol chulg'ab oladi.

Shunday qilib, san'at nafaqat insonning o'zini, balki uning idrok etishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni, voq'ea - hodisalarni aks ettirib, hissiy tuyg'u keltirib chiqaradi. san'at insonni bevosita aks ettirmasada, biror narsaga inson munosabatini faol ifodalaydi, biror narsani inson mezoni bilan baholaydi. Baholashda esa hamisha inson mohiyatini anglashga qaratilgan bilish holati mavjuddir. San'at narsalarda, tabiat hodisalarida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no izlaydi, qidirib topadi va ishga soladi. San'at voq'elikning har qanday hodisasida ijtimoiy ma'no paydo qiladi.

San'atning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini belgilash ko'p jihatlardan uning mafkuraviy tabiatini anglash bilan bog'liq. Ammo san'atni mafkuradan butunlay ajratib mushohada etmaslik hamda san'at bilan mafkurani bir - biriga qorishtirib yubormaslik lozim.

San'at ham, mafkura ham tarixiy hodisa, lekin san'at mafkuradan oldin vujudga kelgan. Mafkura esa qarama - qarshi ijtimoiy guruhlar qarashlari natijasida qaror topadi. Shu bois ijtimoiy guruhlar mafkurani o'zlarining qarashlari ifodasi sifatida ta'riflaydilar. Zero, mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh faoliyatining maqsad - yo'nalishlarini nazariy asoslab, mazkur maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini belgilab beradi. U ijtimoiy guruhlarining aniq yo'nalishiga mo'ljallangan

hatti -harakatlari va xulq - atvorlari dasturini ishlab chiqishga g'oyaviy - nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, san'at hech vaqt u yoki bu mafkura, u yoki bu qarashlar ifoda vositasi bo'lib qololmaydi. San'at umuminsoniy manfaatlar va intilishlarning to'g'ridan to'g'ri ifoda vositasidir. Har qanday mafkura umuminsoniy bo'lsagina san'at mag'zidan o'rin oladi. Mafkuraning san'at mag'ziga kirib, singib borish jarayoni ko'p shakllar va yo'nalishlarga ega. Ijodkor dunyoqarashi umuminsoniy estetik omillar ta'siri ostida shakllanadi. Kishilarning diniy - axloqiy estetik qarashlari tizimida estetik orzuga aylansagina san'atda ro'yobga chiqadi. Estetik orzuda estetika va mafkura qirralari yaqindan chirmashib ketgan bo'ladi. Voq'elik mohiyatiga kirib borish estetik orzuning tabiatiga, uning haqqoniyligiga bog'liq. Muayyan jamiyat hayoti san'atda har tomonlama ifodalanadi. San'atda mafkura ma'naviy hayotning tarkibiy qismlardan biri bo'lib xizmat qiladi. San'at mafkuraviy omillar bilan qo'shilib ketadi va o'ziga xos mafkuraviy qiymatga aylanadi. San'at inson ruhining eng chuqur qatlamlariga kirib borib, ijtimoiy g'oyalar "vositachi"si vazifasini o'taydi. Mazkur g'oyalarni tomoshabin, o'quvchi, eshituvchi, faqat ko'rish bilan emas, balki qahramon kechinmalariga sheriklik hissi orqali ham idrok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti M. SH. Mirziyoev. 2018-yil 28 noyabr PQ-4038-son O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantrish konsepsiyasi to'g'risidagi Qarori. 2- ilova.dsmi-qf.uz. <https://lex.uz>
2. E. Umarov, R. Karimov, M. Mirsaidova, G. Oyxo'jaeva. Estetika asoslari. Toshkent 2002-yil. 74-77-bet
3. R. Hasanov .Tasviriy san'at asoslari. Toshkent 2009-yil. 16-bet
4. I. A. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild Toshkent 1999-yil. 285-bet

Пова



1-rasm. Levitan “Золотая осень”.



2-rasm. O'. Tansiqboyev “Ona diyor”



3-rasm. I.Shishkin “Пейзаж”



4-rasm. I.Аувазовский “Гений морских пейзажных симфоний”



5-rasm. N.Karaxan “Гори и хлопок”.



6-rasm. Villem Heda “Завтрак с черничным пирогом”